

LIFELONG LEARNING - O'QITUVCHILAR PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA YETAKCHI PARADIGMA SIFATIDA

Tursinova Zoxida Sharabidinovna

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

E-mail: zokhida87@mail.ru

Annotatsiya:

Maqolada umrbod ta'lim ya'ni Life Long Learning (LLL) an'anaviy paradigmasining pedagoglarning malakasini oshirishda asosiy faktorlardan biri sifatidagi ahamiyati va XXI asr o'qitish ko'nikmalarini o'rganish va o'rgatish bo'yicha harakatlarni jadallashtirish zarurligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: umrbod ta'lim, global tendentsiyalar, umrbod ta'lim paradigmasining o'zgarishi, ta'lim strategiyasi.

Аннотация:

В статье подчеркивается важность традиционной парадигмы непрерывного обучения (LLL) как одного из основных факторов повышения квалификации педагогов, а также будет рассмотрена необходимость ускорения усилий по изучению и обучению педагогическим навыкам 21 века.

Ключевые слова: непрерывное обучение, мировые тенденции, смена парадигмы непрерывного обучения, образовательная стратегия.

Abstract:

The article highlights the importance of the traditional paradigm of lifelong learning (LLL) as one of the main factors in the professional development of teachers, and it also considers the need to accelerate efforts to study and teach 21st century teaching skills.

Keywords: lifelong learning, global trends, paradigm shift in lifelong learning, educational strategy.

Tahminan 30-40 yillar ilgari insonlar uchun kelajakdagi egallashi mumkin bo'lgan kasbni tanlash yoki rejalashtirish nisbatan osonroq edi. Oliy ta'lim muassasisini bitirgan nomzod kasb-hunar egallar edi va mutaxassislik bo'yicha ishlashi mumkin edi. Ammo hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ayrim sohalardagi bilim va ko'nikmalarning "amal qilish

mudati” bor. Bu esa, o‘z navbatida, doimiy o‘z ustida ishlash va yangi kompetesiyalarni egallash lozimligini bildiradi.

Yevropada 20-asrning o‘rtalarida paydo bolgan lifelong learning (LLL), ya’ni butun umr davomida o‘qish tushunchasi 2000-yillarda ijtimoiy siyosatning asosini tashkil qilgan. Butun umr davomida ta’lim - bu hayot davomida uzluksiz, ongli va faol o‘rganish tushunchasidir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ta’lim samaradorligining oshishiga qaratilgan, bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning hayot davomida uzluksiz malaka oshirishlarini, kasbiy mahoratining uzluksiz rivojlantirish masalalarini belgilaydi.

Mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishni xohlaydigan har bir kishi doimiy ravishda o‘z bilimlarini kengaytirishi va yangi ko‘nikmalarni o‘rganishi kerak. Va buning uchun bir nechta oliy ma’lumotga ega bo‘lish mutlaqo shart emas. Bir umrlik learning kontsepsiyasining mohiyati yangi “qobiqlar”ni emas, balki yangi kompetensiyalarni olishdir. Pedagogik paradigma va ta’lim paradigmasi, shuningdek, uning mohiyati, tuzilishi, asosiy tamoyillari, kontseptual tasnifi va umumiy kategoriyalari pedagogika nazariyasidagi eng murakkab va hali ham yetarlicha o‘rganilmagan muammodir (Xaliqova, 2021).

Ushbu konsepsiyaning mohiyati ayniqsa, o‘qituvchilik kasbida muhim o‘rin egallashi shubhasizdir, chunki zamonaviy o‘quvchiga ilm sarhadlarini zamonga hos va mos yondashuv va metodlar orqali yetkazish uchun o‘qituvchilar uzluksiz oz ustida ishlashi hamda yangi bilim va konikmalarni egallab, yangilab borishlari talab qilinadi.

Bu narsa bugungi kunda barcha kasb vakillariga tegishli. Texnologiya, bozor tendentsiyalari, iste’molchilar psixologiyasi - bularning barchasi keskin tezlikda o‘zgarib bormoqda. Ammo uzluksiz o‘rganish nafaqat zarurat, balki juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lib, ularning har birini batafsil muhokama qilishga qaror qildik.

Rivojlanib borayotgan dunyoda bugungi kunda o‘ziga xos global strategiya sifatida umrbod ta’lim konsepsiyasi, ya’ni umr bo‘yi o‘rganish qabul qilingan. Bu kontsepsiya homo faber (Homo faber (lotincha “ijodkor odam”, “dono” ma’nosida insonga ishora qiladi) – Xanna Arendt va Maks Sheler tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy tushuncha bo‘lib, asbob-uskunalar yoki texnika yordamida tashqi dunyoni boshqaradigan shaxsni tavsiflaydi)ning yangi turi, mehnatkash yoki kengroq ma’noda faol hayotiy pozitsiyani egallagan faol shaxsning shakllanishiga olib keladigan usullardan biridir.

1972 yilda YUNESKO tomonidan e’lon qilingan uzluksiz ta’lim tamoyillari unga qo’yiladigan talablarni belgilab berdi.

Butun dunyo xalqlarida zamonaviy axborot jamiyatida ta’lim etakchi rol o‘ynaydi, chunki u innovatsion rivojlanish jarayonlarining axloqiy va gumanitar tarkibiy qismini tashkil etuvchi qadriyatlar va tamoyillar tizimini tashkil qiladi.

“Umrbod ta’lim”ning nazariy va uslubiy asoslari va asosiy tushunchalari Eduard Lindeman (1961) kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va Piter Satton (1994), Richard Edvards (2000), Robin Usher(2010)ning tadqiqotlarida rivojlantirilgan.

2000 yilda Lissabonda Yevropa sammiti bo‘lib o‘tgan va unda umrbod ta’lim (LLL) paradigmasini rivojlantirishni muhim ekanligi ta’kidlangan. Sammitda insoniyat “bilimlar davri”ga qadam qo‘ygani va bilimga asoslangan iqtisodiyot va jamiyatga muvaffaqiyatli o‘tishni ko‘rgani e’tirof etiladi va bu umrbod ta’lim paradigmasiga mos keladi.

Jamiyat talablariga mos mutaxassis bo‘lish uchun bilim va ko‘nikmalarni uzluksiz ravishda yangilab borishlarikerak bo‘ladi. Yevropa davlatlari va AQShda talabalarning o‘rtacha yoshi tezlik bilan 45 yoshga yaqinlashmoqda. Bu erda biz metanoya muammosiga duch kelamiz, ya’ni sub’ektning o‘zini yangilash qobiliyati yoki qobiliyatsizligi masalasi hozirgi iqtisodiyotning talablaridanbiri desak, adashmaymiz.

Ma’lumki, hozirda zamonaviy ish beruvchilar xodimlarga ayniqsa, ta’lim sohasida yuqori talablar qo’yadilar. Ushbu talablar bugungi kunda asosiy kompetensiyalar deb ataladi. Kompetentsiya - bu xodimning murakkab sifati, bir nechta tarkibiy qismlarning yig‘indisi: ma’lum muammolarni hal qilishga imkon beradigan bilimlar, ko’nikmalar, xatti-harakatlar modellaridir.

Bugungi kunda talab qilinadigan asosiy kompetensiyalardan biri bu "o‘rganish qobiliyati" yoki "moslashuvchanlik". Aytishimiz mumkinki, o‘rganishning mohiyati metanoya bilan bir xil - "ongni yangilash". O‘rganish qobiliyati sub’ektning nafaqat o‘tmish tajribasiga asoslanib, balki yangi yaratilgan modellar asosida harakat qila olishini nazarda tutadi. Zamonaviy biznes sub’ektni dinamik o‘zgaruvchan vaziyatga samarali moslashishni talab qiladi. Moslashuv vaziyatga eng kam yo‘qotish printsipli asosida moslashishni emas, balki yangilikni o‘zlashtirish va undagi imkoniyatlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Biznes omon qolishdan emas, muvaffaqiyatdan manfaatdor.

Shunday qilib, "o‘rganish qobiliyati" kompetensiyasi boshqa kompetentsiyani - ijodkorlikni o‘z ichiga oladi. Ijodkorlik odatda muammolarni yengish uchun innovatsion yechimlar va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi. Ijodkorlik, o‘z navbatida, tashabbuskorlik kabi kompetentsiyani nazarda tutadi, chunki tashabbusiz boshqaruvning eng foydali echimni topishga qaratilgan fikrlashi mavjud emas. Tashabbus, o‘z navbatida, mas’uliyatni o‘z ichiga oladi, chunki uni amalga oshirishga tayyor bo‘lmasdan va bu amalga oshirish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmasdan turib, tashabbus havoda muallaq qoladi va xayolparastlikka aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida , 2023-yil 26-may,
3. PF-79-son
4. TOJET: The Turkish Online Journal of Educational Technology – November 2017, Special Issue for INTE 2017
5. Pulatova D., Tursinova Z. Sh. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini baholash mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari. Yevrosiyo ilmiy-tadqiqotlar jurnali. Impakt factor UIF=8.1/ SJIF=5.685.
6. Mokhira Khalikova. Paradigmal aspects of the 21 century's information and educational environment creation / Journal of modern education. Vol. 5 No. 102 (2021). (XXI асп ахборот-таълим муҳитини ташкил этишининг парадигмал аспектлари / Замонавий таълим журнали. 5 (102). 2021
7. Халикова М. Ҳаёт давомида таълим парадигмаси ахборот жамиятининг муҳим детерминанти сифатида //Журнал социальных исследований. – 2023. – Т. 6. – №. 1. (Lifelong education paradigm as an important determinant of the information society // Journal of Social Research. – 2023. – V. 6. – no. 1.).